
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Jalolova G.M.	Structural-semantic classification and etymological layers of astrological vocabulary in English and Uzbek	146
Abduxakimova G.	A Lexico-Semantic Comparative Analysis of Euphemisms Related to the Body, Health and Private Life in Contemporary English and Uzbek Media Discourse (Social Media, Online News and Blogs)	153
Dalieva M.Kh.	Lexical and pragmatic features of English-language media headlines: a corpus study of world health organization news releases	161
Baynazarov Z.M.	Language policy in the Timurid period and the status of the Turkic language	169
Im S.B.	Gallicisms and the Ways They Entered the Russian Language	181
Im S.B.	Karamzin as the Creator of the French Culture of Sensibility in the Russian Language	189
Siddikova F.O.	The representation of hospitality in English and Uzbek: A Comparative Linguocultural Analysis	195
Sadinova M.A.	Binary conceptual oppositions in the linguistic worldview: The life – death model	204
Umarova J.Zh.	Evaluative Language and Metaphor in Museum Discourse: Assessing AI-Based Analysis of the Savitsky Museum Catalogue	228
Xojanov Sh.B.	The study of phraseological units based on modern linguistic theories in K. Karimov's novel "Agabiy"	239
Azimova D.A.	The System of Non-Canonical Antonym Pairs in English Presidential Speeches and Proverbs (Non-Canonical Antonyms as Powerful Rhetorical Instruments)	246
Nasirova R.A.	Phraseological and Paremiological Conceptualization of Moral Values in English and Uzbek	254
Kambarova M.A.	Universal and National-Specific Features in English and Russian Proverbs (based on Proverbs about Homeland)	260
Djalilov M.M.	Neologisms and abbreviations: the interaction of word-formation processes in modern linguistics	267
Sabirova B.U.	The lexical-semantic analysis of Uzbek pragmalinguistic terms "lingvistik kontekst, vaziyat konteksti, ijtimoiy konteks va kognitiv kontekst"	273
Karimova Z.G'.	Illocutionary features of modal and interjection word-sentences in typologically different languages	282
Borisova Ye.V.	Linguistic representation of blame and responsibility in public corporate apologies	289
Yahyaeva E.V.	Vocative words and vocative sentences in Azerbaijani	301
Musayeva S.	Structural and semantic features of phraseological units in the form of word combinations and sentences in Azerbaijani	310

Language policy in the Timurid period and the status of the Turkic language

Baynazarov Zokir Maxmudovich
zmbaynazarov81@gmail.com
Associate Professor, PhD,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Annotation *Studying the historical roots of the Uzbek literary language and its place in state and social life is necessary for scholarly grounding of present-day language policy. The Timurid period (1370-1507) is especially relevant, since Turkic then rose from a dynastic and military language to a classical literary language. The period's language situation has mostly been studied from a literary perspective, leaving language policy insufficiently explored. The article analyses the status of Turkic alongside Arabic and Persian and court language practice. The study draws on chronicles, inscriptions, manuscripts copied by bakhshis, yarliqs and letters, and data on madrasa education. It shows that Arabic served religion and genealogy, Persian served the chancery and monumental inscriptions, and Turkic was the language of the dynasty, the army, yarliqs and the bakhshis' book culture. In the fifteenth century Turkic became a literary language through court patronage, a process theorised in the treatise "Muhakamat al-lughatayn".*

Keywords *Timurids, Turkic language, language policy, Chaghatay, Uyghur script, Alisher Navoi*

Temuriylar davrida til siyosati va turkiy tilning mavqei

Baynazarov Zokir Maxmudovich
zmbaynazarov81@gmail.com
Dotsent, PhD,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya *O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlarini, uning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganish bugungi til siyosatini ilmiy asoslash uchun zarurdir. Temuriylar davri (1370-1507) turkiy tilning sulola va qo'shin tili mavqeidan mumtoz adabiy til darajasiga ko'tarilgan davr bo'lgani uchun mavzu alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur davr til holati ko'pincha adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan, uning til siyosati jihatlari esa yetarlicha yoritilmagan. Maqolada turkiy tilning arab va fors tillari yonidagi mavqei hamda saroyning til borasidagi amaliyoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy asarlar, toshga bitilgan yozuvlar, baxshilar ko'chirgan qo'lyozmalar, yorliq va maktublar, madrasa ta'limiga oid ma'lumotlar hamda so'nggi yillardagi tadqiqotlar inobatga olindi. Tahlil natijasida arab tili din va nasabnoma tili, fors tili devon va tantanali bitiklar tili, turkiy til esa sulola, qo'shin, yorliq va baxshilar kitobati tili bo'lgani aniqlandi. XV asrda turkiy til saroy homiyligi orqali adabiy til darajasiga ko'tarilgani va nazariy asoslangani ko'rsatildi. Temuriylar til siyosati ma'muriy farmonlarga emas, saroy homiyligiga tayangan siyosat sifatida tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar *Temuriylar, turkiy til, til siyosati, chig'atoy tili, uyg'ur yozuvi, Alisher Navoiy*

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Языковая политика тимуридов и положение тюркского языка

Байназаров Зокир Махмудович
zmbaynazarov81@gmail.com
Доцент, PhD,
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Аннотация *Изучение исторических корней узбекского литературного языка и его места в жизни государства и общества необходимо для научного обоснования современной языковой политики. Эпоха Тимуридов (1370-1507) особенно актуальна, поскольку именно в этот период тюркский язык поднялся от языка династии и войска до классического литературного языка. Языковая ситуация этой эпохи изучалась преимущественно с литературоведческой точки зрения, тогда как вопросы языковой политики освещены недостаточно в рассмотренных источниках. В статье анализируются статус тюркского языка наряду с арабским и персидским и языковая практика двора. В исследовании учтены исторические сочинения, эпиграфические памятники, рукописи бахшиев, ярлыки и письма, сведения о медресе, а также новейшие турецкие и узбекские исследования. Установлено, что арабский язык был языком религии и родословных, персидский служил языком делопроизводства, историографии и торжественных надписей, а тюркский был языком династии, войска, ярлыков и книжности бахшиев. Показано, что в XV веке тюркский язык при поддержке двора стал литературным языком, а этот процесс получил теоретическое обоснование в трактате "Мухакамат ал-лугатайн".*

Ключевые слова *Тимуриды, тюркский язык, языковая политика, чагатайский язык, уйгурское письмо, Алишер Навои*

Kirish

Temuriylar davri (1370-1507) turkiy tilning sulola va qo‘shin tili mavqeidan mumtoz adabiy til darajasiga ko‘tarilgan davr bo‘lib, “eski o‘zbek tili” yoki “chig‘atoy tili” deb ataluvchi yozma me’yor aynan shu davrda shakllandi. Navoiy davridan boshlab bu til “turkiy til” va “turk tili” deb atalgan (Uçar, 2013), “chig‘atoy” nomi esa Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida ham uchraydi (Ölmez, 2007). “Til siyosati” atamasini bu davrga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerak, chunki temuriylar davlatida til masalasini tartibga soluvchi qonun yoki farmonning matni ma’lum emas. A. Erkinov Husayn Boyqaro shoirlarga chig‘atoy tilida yozishni buyurgan farmon chiqarganini aytadi (Erkinov, 2025), ammo bu da’vo birlamchi manba bilan tasdiqlanmagan. Shunga qaramay, saroyning qaysi tilda yozishi, qaysi tilga homiylik qilishi, toshga qaysi tilda bitik qoldirishi va madrasalarda qaysi tillarni o‘qitishi muayyan til ierarxiyasini yuzaga keltirgan. Biz bu holatni ma’muriy emas, madaniy-homiylik asosidagi til siyosati deb hisoblaymiz.

Tadqiqot maqsadi temuriylar davrida turkiy tilning arab va fors tillari yonidagi o‘rnini aniqlash, uning vazifaviy doirasini yozma va epigrafik dalillar asosida ko‘rsatish hamda XV asrdagi turkiy adabiy til yuksalishining saroy siyosati bilan bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning manbaviy asosini

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si (Yezdî, 1972), Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur"i (İbn Arabşah, 2012), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si kabi tarixiy asarlar, Qarsaqpay bitigi (1391), Ko'k tosh va Jilono'tti darasidagi Ulug'bek bitigi (1425) kabi epigrafik yodgorliklar, baxshilar uyg'ur yozuvida ko'chirgan qo'lyozmalar, yorliq va maktublar hamda Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois" asarlari va Husayn Boyqaroning "Risola"si tashkil etadi. H. Alanning "Bozqirdan jannat bog'iga. Temuriylar (1360-1506)" monografiyasi (Alan, 2007) va T. Tombulog'luning "Temuriylar davlatida ta'lim" maqolasi (Tombulog'lu, 2023) tadqiqotning asosiy ilmiy tayanchi bo'ldi.

Mavzu o'zbek fanida ham muayyan darajada o'rganilgan. E. Fozilov XIV asr Xorazm yodgorliklari asosida eski o'zbek tilining temuriylardan oldingi yozma asoslarini tavsiflagan (Фазылов, 1966-1971). G'. Abdurahmonov va Sh. Shukurov eski o'zbek tilining tarixiy grammatikasini yaratgan (Абдураҳмонов ва Шукуров, 1973). I. Mo'minov Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi o'rnini maxsus tadqiq etgan (Муминов, 1968), A. Rustamov Navoiyning badiiy mahorati va til imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan (Рустамов, 1979). So'nggi yillarda Q. Sodiqov Navoiyning uyg'ur yozuvidagi ijodini (Sodiqov, 2025), H. Jo'rayeva esa Husayn Boyqaroning adabiy merosini (Jo'rayeva, 2025) o'rgangan. Turkiyada chig'atoy tilining shakllanishi va nomlanishi (Ölmez, 2007; Uçar, 2013), temuriylar davri adabiyotida til vaziyati (Zeylâbî, 2020) hamda Navoiyning turkiy tilga qo'shgan hissasi (Bulut, 2017) yoritilgan. Xorijiy fanda Movarounnahrdagi til vaziyati vazifaviy diglossiya nuqtayi nazaridan tavsiflangan (Благова, 1986), temuriylar boshqaruvidagi turkiy-fors uyg'unligi esa alohida tadqiq etilgan (Subtelny, 2007; Manz, 2007). Biroq bu tadqiqotlarning barchasida til masalasi asosan tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yoritilgan, uning til siyosati jihatlari esa alohida tahlil qilinmagan. Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va vazifaviy-sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanilib, tillar o'rtasidagi munosabat diglossiya, ya'ni vazifaviy ikki yoki ko'p tillilik nazariyasi nuqtayi nazaridan baholandi.

Sulolaning turkiy asoslari va siyosiy o'zlik

Temuriylar sulolasi turkiylashgan barlos urug'idan chiqqan. H. Alanning ta'kidlashicha, barloslar Chingizxon tomonidan Chig'atoyga berilgan urug'lardan biri bo'lgan, ammo oradan o'tgan bir asr davomida Movarounnahrda o'troqlashib, turkiy tilda so'zlashuvchi musulmon urug'ga aylangan (Alan, 2007). Temurning siyosiy o'zligi ham uch manbaga tayangan. Alanning yozishicha, u "Musulmonlar amiri", "Turkiylarning beyi" va "Mo'g'ullar kuyovi" (Ko'ragon) bo'lishga muvaffaq bo'lgan (Alan, 2007). Bu uch unsur keyinchalik tillarning vazifaviy taqsimotida ham aks etgan. Islom an'anasi arab tilida, turkiy o'zlik turkiy tilda ifodalangan, mo'g'ul siyosiy merosi esa *yasa, to'ra, yorliq, tamg'a, no'yon, tavochi* kabi davlat boshqaruvi atamalarida saqlanib qolgan. I. Mo'minov Temurni parokanda Movarounnahrni birlashtirib, markazlashgan davlat barpo etgan arbob sifatida baholagan (Муминов, 1968).

Temurning til bilimi haqida Ibn Arabshoh ma'lumot beradi. Uning yozishicha, Temur arab tilini bilmagan (İbn Arabşah, 2012). Zamonaviy tadqiqotlarda esa Temurning ona tili turkiy (chig'atoy) til bo'lgani, u fors va mo'g'ul tillarini ham bilgani qayd etiladi (Timur). Demak, saroyning og'zaki muloqot tili turkiy til bo'lgan, fors tili esa yozma devon va diplomatiya tili sifatida xizmat qilgan. Alan Temurni mo'g'ul yoki turk deb tasniflash borasidagi bahslarga nisbatan muhim metodologik fikr bildiradi. Uning fikricha, tadqiqotchi uchun asosiy masala bugungi tushunchalar bilan Temurni qanday ko'rishni xohlashimiz emas, balki o'sha davr kishilarining o'zlarini qanday ko'rganidir (Alan, 2007). Shu jihatdan Temurning o'zi qoldirgan turkiy bitik, ya'ni Qarsaqpay bitigi alohida ahamiyatga ega (4-bo'limga qarang).

Uch tilning vazifaviy taqsimoti

Temuriylar davlatida arab, fors va turkiy tillar raqobatlashmagan, balki turli ijtimoiy sohalarni o‘zaro bo‘lishib olgan. Sotsiolingvistikada bu holat vazifaviy ko‘p tillilik yoki diglossiya deb ataladi. 1-jadvalda manbalar asosida har bir tilning asosiy qo‘llanish doirasi ko‘rsatiladi.

Til	Asosiy vazifalari	Yozuv	Dalillar
Arab tili	Qur’on, diniy formula, fiqh, nasabnoma, epigrafikadagi islomiy iboralar	Arab yozuvi	Qarsaqpay bitigining arabcha qismi; Ko‘k toshdagi nasabnoma; madrasalarda arab tili darslari
Fors tili	Devon, moliya hisobi, diplomatiya, tarixnavislik, tantanali epigrafika, ilmiy nasr	Arab yozuvi	Yazdiy va Shomiy “Zafarnoma”lari; Temurning Karl VI ga maktubi (1402); Jilono‘tti bitigi (1425); “Ziji Ko‘ragoniy”
Turkiy til	Sulola va qo‘shin tili, saroyda og‘zaki muloqot, yorliq va maktub, baxshilar kitobati, XV asrdan adabiyot	Uyg‘ur va arab yozuvlari	Qarsaqpay bitigining turkiy qismi (1391); Abusaidning maktubi; Hirotdagi uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalar; Navoiy va Husayn Boyqaro ijodi

1-jadval. *Arab, fors va turkiy tillarning vazifaviy taqsimoti*

Bu taqsimotning tarixiy ildizlari bor. Fors tilining devondagi o‘rni somoniylar, g‘aznaviylar va saljuqiylardan meros bo‘lgan, turkiy tilning uyg‘ur yozuvidagi kitobat an’anasi esa mo‘g‘ul imperiyasi devonlaridan o‘tgan. Alan Temurning moliyaviy hisob-kitoblarda eronlik vazirlardan foydalanganini, ayni paytda harbiy aslzodalarning turkiy-mo‘g‘ul an’anasiga tayanganini ko‘rsatadi (Alan, 2007). M. Subtelnining fikricha, Husayn Boyqaro davrida ko‘chmanchi turkiy-mo‘g‘ul davlati fors-islom boshqaruviga moslashgan, shu bilan birga sulola turkiy-mo‘g‘ul o‘zligini saqlab qolgan (Subtelny, 2007). Taqsimot o‘zgarmas ham bo‘lmagan. XIV asr oxirida turkiy tilning yozma doirasi asosan yorliq va bitik bilan cheklangan bo‘lsa, XV asr oxiriga kelib bu til badiiy adabiyot va til haqidagi nazariy asar tiliga aylandi. O‘zbek tilshunosligida ham XIV-XV asrlar eski o‘zbek adabiy tili me’yorlarining qaror topish davri sifatida qaraladi (Абдураҳмонов ва Шукуров, 1973), bu me’yorning yozma asoslari esa XIV asr Xorazm yodgorliklarida ham kuzatiladi (Фазылов, 1966-1971). Eronlik tadqiqotchi N. Zeylobiy ham temuriylar davrida fors tili devon, tarix, she’riyat va san’at tili sifatida ustun bo‘lganini, arab tili esa Bag‘dod qulaganidan (656/1258) keyin asta-sekin susayib, asosan fiqh va falsafa doirasida saqlanib qolganini, turkiy til esa davr oxirida Movarounnahrda chig‘atoy tili sifatida kuchayib, shoirlar ikki tilda devon tuzganini qayd etadi (Zeylâbî, 2020). J. Perrining yozishicha, XV-XVI asrlarda saroy muhitida shakllangan chig‘atoy tili hozirgi o‘zbek tilining bobosi bo‘lgan (Perry, 2006).

Saroy kotibligi, baxshilar kitobati, yorliq va maktublar

Temuriylar devonida yozma ish ikki guruh kotiblar orasida taqsimlangan. Fors tilidagi rasmiy yozishmalarni munshiylar tuzgan, turkiy hujjatlar va kitoblarni esa baxshilar yozgan. T. Tombulog‘lu baxshilarni “bitikchilar” deb ham ataydi va ular ko‘chirgan bir necha qo‘lyozmani tilga oladi. Malik Baxshi “Me’rojnoma”ni (1436) va Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarining uyg‘urcha tarjimasini, Mansur Baxshi “Baxtiyornoma”ni ko‘chirgan, “Qutadg‘u bilig” esa 1439-yilda Hirotda uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan (Tombulog‘lu, 2023). Bu qo‘lyozmalarning Shohrux davrida, fors madaniyatining markazi bo‘lgan Hirotda ko‘chirilgani turkiy kitobatning saroyda uzluksiz davom etganini ko‘rsatadi. Uyg‘ur yozuvi bu davrda turkiy-mo‘g‘ul siyosiy an’anasiga

sodiqlik ramzi sifatida qaralgan, Tombulog‘lu esa temuriylarning bu yozuvga ko‘rsatgan e’tibori usmoniylar saroyiga ham ta’sir qilganini qayd etadi (Tombulog‘lu, 2023).

Baxshilar faqat ko‘chiruvchi bo‘lmagan. H. Nagamine ma’lumotiga ko‘ra, shayboniylar davriga oid “Zubdat ul-osor” asarida “Tarixi xoniy” nomli manba tilga olinadi. Tadqiqotchilar uni Temur saroyidagi uyg‘ur baxshilari yozgan nazmiy yilnoma deb taxmin qilgan va Yazdiyning “Zafarnoma”si hamda Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari uchun umumiy manba bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb hisoblagan, ammo asarning mavjudligi hozircha tasdiqlanmagan, mazmuni va nasabi esa munozarali (Nagamine, 2025). Uyg‘ur yozuvi an’anasi XV asr oxirigacha yashagan. Q. Sodiqov Alisher Navoiyning uyg‘ur yozuvidagi ijodini va shoirning bu yozuv haqidagi qarashlarini maxsus tadqiq etgan (Sodiqov, 2025). Bu holat uyg‘ur yozuvining Husayn Boyqaro saroyida ham madaniy qadriyat sifatida saqlanganini ko‘rsatadi.

Yorliq va maktublar

Turkiy til hukmdorning shaxsiy so‘zi ifodalanadigan hujjatlarda ham saqlangan. Alan Sulton Abusaidning oqqo‘yunli Uzun Hasanga yo‘llagan maktubini misol keltiradi. Maktub “Sulton Abusaid Ko‘ragon so‘zim” formulasi bilan boshlanadi. Bu ma’lumot A.N. Kuratning To‘pqopi saroyi muzeyidagi Oltin O‘rda, Qrim va Turkiston xonlari yorliqlariga bag‘ishlangan nashridan olingan (Kurat, 1940; Alan, 2007). “...so‘zim” formulasi Oltin O‘rda va Chig‘atoy ulusi yorliqlaridan meros qolgan turkiy hujjatchilik an’anasidir. Shunday qilib, saroy kitobatida ham aniq vazifaviy taqsimot kuzatiladi. Fors tili devon va hisob tili bo‘lgan, turkiy til esa hukmdor nomidan aytilgan so‘z, ya’ni yorliq va maktub tili sifatida saqlangan. Uyg‘ur yozuvidan arab yozuviga o‘tish asta-sekin kechgan va XV asr oxiriga kelib turkiy matnlar asosan arab yozuvida bitila boshlagan.

Toshga bitilgan yozuvlar

Temuriylar davri epigrafikasi til ierarxiyasining eng ko‘rgazmali dalilidir. Toshga bitilgan yozuv hukmdorning o‘zi haqida abadiy qoldirmoqchi bo‘lgan so‘zidir, shuning uchun uning tili ongli tanlov natijasidir. Quyida uch yodgorlik 2-jadvalda qiyoslanadi.


Yodgorlik	Sana	Joy	Til va yozuv
Qarsaqpay bitigi	1391	Ulug‘ Tag‘, Markaziy Qozog‘iston	3 qator arabcha, 8 qator turkiycha (uyg‘ur yozuvi)
Jilono‘tti bitigi	1425 (h. 828)	Sangzor darasi, Jizzax yaqinida	Fors tili, arab yozuvi
Ko‘k tosh	1425 yildan keyin	Temur maqbarasi, Samarqand	Arab tili, arab yozuvi

2-jadval. *Temuriylar davri epigrafik yodgorliklari*

1. **Qarsaqpay bitigi (1391).** Alan Yazdiyga tayanib, bitikning qo‘yilish sharoitini tasvirlaydi. Temur 1391-yil 22-fevralda To‘xtamishxonga qarshi yurishga chiqqan. Qo‘shin suvsiz dashtdan o‘tib, Kichik Tag‘ nomli tog‘ga yetib kelgan, Temur tog‘ tepasidan keng dashtga qarab, askarlarga tosh to‘platgan va safar xotirasiga yodgorlik barpo etishni buyurgan (Alan, 2007). Bitik 1935-yilda Ulug‘ Tag‘ tog‘idagi Qarsaqpay konlari yaqinida topilgan va hozir Sankt-Peterburgdagi Ermitajda saqlanadi. O‘lchami 80×40 sm bo‘lgan toshda jami 11 qator matn bor. Uning uch qatori arab yozuvida, sakkiz qatori turkiy (chig‘atoy) tilda uyg‘ur yozuvida bitilgan. Bitikni dastlab N. Poppe 1940-yilda nashr

etgan, uning o‘qilishini A.I. Ponomarev 1945-yilda aniqlashtirgan, Turkiyada esa Z.V. To‘g‘on 1943-yilda maxsus maqola bilan, H. Eren 1977-yilda Poppe maqolasining turkcha tarjimasi bilan murojaat qilgan (Karsakpay inscription; Пономарев, 1945; Usmanova va boshq., 2026). Alan matnning turkiy qismini O.F. Sertkaya o‘qishi asosida keltiradi (Sertkaya, 2005; Alan, 2007). Bitikning turkiy qismi mazmunan quyidagichadir.

Yetti yuz to‘qson uchinchi yil, qo‘y yilida, yer egasi, Turon sultoni Temurbek uch yuz ming askar bilan To‘xtamishxonga, bulg‘or xoniga yurish qildi. Bu yerga yetib, belgi bo‘lsin deb bu yodgorni qoldirdi. Tangri bizga adolat bersin. Tangri tinch elga marhamatli bo‘ladi, el bizni duo bilan yod etadi.



1-rasm. *Qarsaqpay bitigi (1391)*

Bitik til tarixi uchun bir necha jihatdan muhim. Unda yozuvlarning vazifaviy taqsimoti aniq ko‘rinadi, ya’ni Qur’on oyati arab tilida, hukmdorning so‘zi esa turkiy til va uyg‘ur yozuvida berilgan. Hijriy sana (793) bilan birga turkiy muchal hisobi (“qo‘y yili”) ham qo‘llangan, matn leksikasida esa “Tangri”, “el”, “belgi”, “yodgor” kabi qadimgi turkiy so‘zlar islomiy formulalar bilan yonma-yon ishlatilgan. Alan Temurning o‘zini “Turon sultoni” deb atashiga va Chingizxonga hech qanday ishora qilmasligiga e’tibor qaratadi. Uning xulosasiga ko‘ra, Temur “Musulmonlar amiri” va “Turkiylarning beyi” sifatida chingiziylar xonadonidan tashqarida qonuniy hokimiyat qura olgan (Alan, 2007). Shu tariqa Qarsaqpay bitigi Ko‘kturk davridan buyon davom etib kelgan “belgi tosh” qo‘yish an’anasining

temuriylar davridagi davomi va turkiy epigrafikaning so‘nggi yirik namunalaridan biridir. Bitikning ayrim o‘rinlari turlicha o‘qiladi. N. Poppe qo‘shin sonini “ikki yuz ming” deb o‘qigan, A.I. Ponomarev esa “ikki” so‘zining o‘qilishiga shubha bildirib, “uch” deb o‘qishni taklif qilgan, keyingi o‘qishlarda ham “uch yuz ming” varianti qabul qilingan. Sana ham turlicha aniqlangan. A.I. Ponomarev bitik o‘rnatilgan kunni hijriy 793-yil 23-jumodul-avval (1391-yil 28-aprel) deb hisoblasa, A.P. Grigoryev va hamkasblari uni “qo‘y yili bahorning o‘rta oyi” (1391-yil 6-aprel) deb belgilagan (Пономарев, 1945; Usmanova va boshq., 2026). So‘nggi tadqiqotda bitikdagi arabcha ibora bilan turkiy matnning yonma-yon kelishi islomiy va turkiy siyosiy shakllarning uyg‘unligi sifatida baholangan (Usmanova va boshq., 2026).

2. **Mirzo Ulug‘bekning Jilono‘tti bitigi (1425).** Ulug‘bekning bitigi Jizzax yaqinidagi Sangzor daryosi darasida, “Temur darvozasi” deb ataluvchi joyda qoyaga o‘yib yozilgan. Unda Ulug‘bek Ko‘ragonning jeta va mo‘g‘ullar yurtiga yurish qilib, hijriy 828-yilda (milodiy 1425) sog‘-salomat qaytgani qayd etilgan, hukmdor esa “buyuk sulton”, “yer yuzida Allohning soyasi”, “sunnat va shariat tayanchi” kabi unvonlar bilan ulug‘lanadi. Bitik fors tilida yozilgan (A trip to Tamerlane's Gate). Ikki bitikni qiyoslash muhim xulosaga olib keladi. 1391-yilda Temur dasht ichida turkiy-mo‘g‘ul an’anasidagi belgi tosh qo‘yib, o‘z so‘zini turkiy tilda bitdirgan bo‘lsa, oradan 34 yil o‘tib Ulug‘bek o‘troq madaniyat hududida xotira yozuvini fors tilida va islomiy-forsiy unvonlar bilan qoldirgan. Demak, XV asr boshida tantanali epigrafikada fors tili ustun mavqega ega bo‘lgan.
3. **Ko‘k tosh.** Temur qabri ustidagi to‘q yashil nefrit tosh ham Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq. Alanning yozishicha, bu tosh Ulug‘bek tomonidan “Turkiston shimolidan” olib kelinib, Samarqandda yo‘nilgan va Temur qabriga qo‘yilgan. Toshga Temurning nasabnomasi bitilgan bo‘lib, unda ajdodlar Qarachar no‘yon orqali Tumanayxongacha olib boriladi (Alan, 2007). Bu yozuv arab tilida va arabcha “ibn” qolipida tuzilgan, turkiy-mo‘g‘ul unsuri esa faqat *Tarag‘ay, Barqal, Ilangiz, Ijil, Qarachar* kabi atoqli otlarda saqlangan. Shunday qilib, uch yodgorlik uch tilning turli vazifalarini yaqqol ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimida turkiy til

Temuriylar davrida ta’lim davlat an’anasiga aylangan va madrasalar vaqf daromadlari hisobidan faoliyat ko‘rsatgan. Tombulog‘lu shahzodalarning saroyda ta’lim olishi davlat majburiyati hisoblanganini, Samarqand saroyida mirzolar mantiq, kalom, matematika, tibbiyot, tarix va adabiyot bilan birga arab va fors tillaridan ham saboq olganini ta’kidlaydi (Tombulog‘lu, 2023). Bu ro‘yxatda turkiy til yo‘q, chunki u sulolaning ona tili bo‘lgan va alohida o‘rganilmagan. XV asr oxiriga kelib vaziyat o‘zgaradi. Tombulog‘lu Alisher Navoiy asos solgan Ixlosiya madrasasining o‘quv dasturini keltirar ekan, temuriylar madrasalarida turk, arab va fors tillari darslari dasturga kiritilganini qayd etadi (Tombulog‘lu, 2023). Turkiy tilning madrasa dasturida alohida fan sifatida ko‘rsatilishi uning yozma, o‘rganiladigan va me’yorlashgan til sifatida tan olinganidan dalolat beradi.

Ta’lim muassasalari tarmog‘i ham kengaygan. M. Subtelnining hisob-kitobiga ko‘ra, Husayn Boyqaro davrida Hirotda vaqf daromadlari hisobidan 100 ga yaqin ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatgan (Tombulog‘lu, 2023). Navoiyning Ixlosiya majmuasi uchun yozgan “Vaqfiya”si (1481-1482) turkiy tilda bitilgani esa bu tilning vaqf kabi huquqiy-xo‘jalik hujjatlarida ham qo‘llanganini, binobarin, ta’lim muassasalarini tashkil etish va boshqarish tiliga aylana boshlaganini ko‘rsatadi. Yirik madrasalardagi oliy toifali mudarrislar soni 3-jadvalda Tombulog‘lu (2023) ma’lumotlari asosida keltirildi.

Madrasa	Oliy toifali mudarrislar soni
Husayn Boyqaro madrasasi	8
Ixlosiya madrasasi	7
Shohrux madrasasi	4
Gavharshodbegim madrasasi	4

3-jadval. *Yirik madrasalardagi oliy toifali mudarrislar soni*

XV asr birinchi yarmida turkiy adabiy tilning yuksalishi

Shohrux (1409-1447) davrida Hirot va Samarqand ilm-fan va san'at markazlariga aylandi. Tombulog'lu Shohrux, Ulug'bek va Boysung'urning olim va hunarmandlarga homiylik qilibgina qolmay, ilm-fan, san'at va she'riyatga ham qiziqqanini, Boysung'ur Mirzo esa Hirotdagi saroyini 100 ga yaqin rassom ishlagan kitob san'ati ustaxonasiga aylantirganini ta'kidlaydi (Tombulog'lu, 2023). Bu muhitda fors tili ustun bo'lsa-da, turkiy she'riyat ham shakllana boshladi. Durbek 1409-yilda Balxda "Yusuf va Zulayho" dostonini yozgan, Lutfiy 1411-yilda "Gul va Navro'z" dostonini yaratgan. Navoiyning "Majolis un-nafois"dagi ma'lumotiga ko'ra, Lutfiy Yazdiyning "Zafarnoma"sini ham turkiy nazmga solishga kirishgan. Sakkokiy Ulug'bek va Xalil Sultonga turkiy qasidalar bag'ishlagan, Atoyi, Gadoiy va Yaqiniy ijodida esa turkiy g'azal va munozara janrlari rivojlangan.

Tombulog'lu temuriylar davrida tayyorlangan asarlarda turk tiliga ham ustuvor ahamiyat berilganini qayd etadi (Tombulog'lu, 2023). Ammo bu davrda turkiy tilning adabiy mavqei hali shoirlarning shaxsiy tashabbusiga tayangan, ilmiy nasr esa fors tilida yaratilgan. Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" va "Tarixi arba' ulus" asarlari ham fors tilida yozilgan. Demak, XV asr birinchi yarmida turkiy til she'riyatda mustahkamlana boshlagan, ilm va tarixnavislikda esa fors tili hukmron bo'lib qolgan. Saroyning ongli dasturi sifatidagi homiylik XV asrning ikkinchi yarmida, Husayn Boyqaro davrida shakllandi.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy faoliyatida turkiy tilni himoya qilish dasturi

Husayn Boyqaro (1438-1506) 1469-yilda Hirotda taxtga o'tirdi, uning yaqin do'sti Alisher Navoiy (1441-1501) esa saroyda yuqori lavozimni egalladi (Ölmez, 2007). Tombulog'lu bu davrni temuriylar madaniyatining eng yuqori cho'qqisi deb baholaydi va Hirot aynan shu davrda turk adabiy harakatining markaziga aylanganini ta'kidlaydi (Tombulog'lu, 2023). Bu davrda turkiy tilga e'tibor uch yo'nalishda namoyon bo'ldi.

1. **Hukmdorning o'zi turkiy ijodkor sifatida.** Husayn Boyqaro "Husayniy" taxallusi bilan turkiy g'azallar yozgan va devon tuzgan. Navoiy 1469-yilda yozgan "Hiloliya" qasidasini aynan Husayniy g'azallari uslubida yaratgan, Husayniy devonida esa Navoiy g'azallariga tatabbu' qilib yozilgan she'rlar ham bor (Djuraeva va Sulaymonov, 2023). Hukmdor va shoirning o'zaro ijodiy javob qaytarishi turkiy nazmni saroy madaniyatining markaziga olib chiqdi. Fors tili hali ham nufuzli adabiy til hisoblangan muhitda hukmdorning turkiy tilda ijod qilishi bu tilga eng yuqori darajadagi e'tirofni bildirgan. Bobur ham "Boburnoma"da Husayn Boyqaroning turkiy she'r aytganini va devon tartib berganini qayd etadi, ba'zi baytlarini yaxshi deb hisoblaydi, ammo devondagi she'rlarning bir xil vaznda yozilganini tanqid qiladi.
2. **Husayn Boyqaroning "Risola"si.** Hukmdorning 1485-yilda yozgan "Risola"si turkiy tilning mavqei haqidagi rasmiy bayonot sifatida qimmatlidir. H. Jo'rayevaning tadqiqotiga ko'ra, Husayn Boyqaro unda Navoiy nazmining vasfida

til ojiz ekanini aytadi va uning turk tilining o‘lgan jasadiga “Masih anfosi bila ruh kiyurdi”, ya’ni Masih nafasi bilan jon kirgizganini ta’kidlaydi (Jo‘rayeva, 2025). Risola 1966-yilda H. Arasli tomonidan “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida (3-son) birinchi marta e’lon qilingan. Hukmdorning o‘z vazirining til borasidagi xizmatini rasmiy matnda e’tirof etishi turkiy tilni qo‘llab-quvvatlash saroy siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

3. **“Muhokamat ul-lug‘atayn” (1499-1500).** Tombulog‘lu Navoiyning eng o‘ziga xos jihati sifatida uning fors tiliga nisbatan turkiy tilni himoya qilganini va bu fikrni “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida aniq bayon etganini ko‘rsatadi (Tombulog‘lu, 2023). Hijriy 905-yilda (1499-1500) yakunlangan bu asarda Navoiy turkiy tilning leksik boyligini dalillar bilan isbotlaydi. U fors tilida muqobili bo‘lmagan yuzga yaqin turkiy fe’lni sanab o‘tadi, turkiy so‘zlarning ko‘p ma’noliligini va yaqin tushunchalarni farqlashdagi aniqligini ko‘rsatadi (Навоий, 1987-2002). A. Rustamov Navoiy ijodida turkiy tilning badiiy imkoniyatlari qanday ochilganini atroflicha tahlil qilgan (Рустамов, 1979). Zamonaviy tanqidiy qarash ham bor. R. Devereux asarda ishlatilgan so‘zlarning kamida yarmi arab yoki fors tilidan o‘zlashganini ta’kidlaydi (Devereux, 1966; Muhakamat al-Lughatayn). G.F. Blagova esa Navoiy lug‘atining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i arab va eroniy o‘zlashmalardan iborat ekanini qayd etadi (Благова, 1986). Biroq bu holat asarning maqsadiga zid emas, chunki Navoiy turkiy tilni “sof” qilishni emas, uni arab-fors madaniy merosini o‘zlashtirgan holda mustaqil adabiy til sifatida tan oldirishni maqsad qilgan. Navoiy bu asarni umrining so‘nggi yillarida yozgan, u 1501-yil 3-yanvarda vafot etgan (Bulut, 2017). G. Kutning qayd etishicha, Navoiy turkiy asarlarida “Navoiy”, forsiy asarlarida “Foniy” taxallusini ishlatgan, bu asarni esa forsiy-arabiy yozishga o‘rganib qolgan hamasrlariga qarshi yozgan (Kut, 2020).

4. **Homiylik masalasi.** Tombulog‘lu Husayn Boyqaro davrida ilm-fanni Shohrux davri bilan taqqoslab bo‘lmasligini va madaniy hayotning bosh homiysi sifatida Navoiy hukmdordan ancha oldinda bo‘lganini yozadi (Tombulog‘lu, 2023). Bu fikrda jon bor, chunki Ixlosiya majmuasi, kutubxona va kechki ilmiy-adabiy majlislar Navoiy nomi bilan bog‘liq. Shunga qaramay, Navoiyning homiylik faoliyati uning saroydagi mavqei va hukmdorning madaniy siyosati doirasida amalga oshgan. Hukmdor turkiy ijodga siyosiy nufuz berdi, Navoiy esa uni nazariy jihatdan asoslab, badiiy yetuklik darajasiga ko‘tardi. Bu yuksalish forsiy ilmiy muhitni bartaraf etmadi. Tombulog‘lu tarixchi Mirxondning Ixlosiya madrasasida tahsil olganini va keyinchalik Navoiy uni shu yerdagi xonaqohga boshliq qilib tayinlaganini qayd etadi (Tombulog‘lu, 2023). Mirxond va Xondamir o‘z asarlarini fors tilida yozgan. Demak, Husayn Boyqaro saroyida ikki tillilik saqlangan, ammo tillarning mavqei o‘zgargan. Ikki tillilik Shohrux davrida ham kuzatilgan: chig‘atoy shoiri Yusuf Amiriy Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlab forsiy devon ham tuzgan (Uzunoğlu Sayın, 2025).

Muhokama va xulosa

Tadqiqot natijalari temuriylar davridagi til holatini bir asr davomida bosqichma-bosqich o‘zgargan vazifaviy ko‘p tillilik sifatida tavsiflash imkonini beradi (4-jadval).

Bosqich	Turkiy tilning asosiy doirasi	Asosiy dalillar
1370-1405, Temur davri	Sulola, qo‘shin, og‘zaki muloqot, bitik va yorliq	Qarsaqpay bitigi (1391); Ibn Arabshoh ma’lumoti
1405-1447, Shohrux va Ulug‘bek davri	Baxshilar kitobati, uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalar, turkiy she’riyatning shakllanishi	Hirot ko‘chirmalari (1436, 1439); Durbek, Lutfiy, Sakkokiy; Jilono‘tti bitigi fors tilida (1425)
1447-1469, o‘zaro kurashlar davri	Diplomatik yozishma, yorliq	Abusaidning Uzun Hasanga maktubi
1469-1506, Husayn Boyqaro davri	Yuksak adabiyot, til nazariyasi, vaqf hujjati, madrasa fani	Husayniy devoni; “Risola” (1485); “Vaqfiya”; “Muhokamat ul-lug‘atayn” (1499-1500)

4-jadval. *Temuriylar davrida turkiy tilning vazifaviy doirasi bosqichlari*

4-jadvaldagi ma’lumotlar bir necha muhim xulosa chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, temuriylar davlatida tillar o‘rtasida aniq vazifaviy taqsimot mavjud bo‘lgan. Arab tili din va nasabnoma, fors tili moliya va insho devoni, tarixnavislik va tantanali bitiklar, turkiy til esa sulola, qo‘shin va hukmdorning bevosita so‘zi tili sifatida xizmat qilgan, bu taqsimot Qarsaqpay bitigi, Jilono‘tti bitigi va Ko‘k toshni qiyoslaganda yaqqol ko‘rinadi. Devon tili ham faqat forscha bo‘lmagan: Mironshohning 1398-yildagi uyg‘ur-turkiy farmoni forscha xulosa bilan yozilgan (Matsui va boshq., 2015), turkiy devon esa harbiy boshqaruv bilan shug‘ullangan (Document of the Month, 2026). Temuriylar devonining tuzilishi Manz (2007) kitobida batafsil yoritilgan. Ikkinchidan, turkiy til XIV-XV asrlarda ikki yozuvda yashagan. Uyg‘ur yozuvi baxshilar kitobati orqali turkiy-mo‘g‘ul siyosiy an’anasiga sodiqlik ramzi bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, XV asr oxiriga kelib arab yozuvi turkiy matnlar uchun asosiy yozuvga aylangan.

Uchinchidan, turkiy tilning qo‘llanish doirasi bosqichma-bosqich kengaygan. U yorliq va bitik doirasidan she’riyatga, keyin esa til nazariyasi, vaqf hujjatlari va madrasa ta’limiga kirib borgan va bu jarayon Husayn Boyqaro hamda Alisher Navoiy faoliyatida cho‘qqiga chiqqan. To‘rtinchidan, temuriylar til siyosati ma’muriy farmonlarga emas, birinchi navbatda saroy homiyligi, hukmdorning shaxsiy ijodi va madaniy dasturga tayangan, shu sababli uni madaniy-homiylik asosidagi “yumshoq” til siyosati deb tavsiflash mumkin.

Beshinchidan, turkiy tilning yuksalishi fors tilini siqib chiqarmagan. Davr oxirida ikki til teng nufuzli adabiy tillar sifatida yonma-yon mavjud bo‘lgan, Navoiyning “zullisonayn”, ya’ni ikki tilli shoir sifatidagi faoliyati buning yorqin ifodasidir. Temuriylar davrida shakllangan turkiy adabiy me’yor keyinchalik boburiylar, shayboniylar va keyingi xonliklar davrida davom ettirildi va hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy asosiga aylandi. Uni chuqur o‘rganish bugungi til siyosatini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Alan, H. (2007). *Bozkırdan Cennet Bahçesine: Timurlular (1360-1506)*. Ötüken. (O‘zbekcha tarjimasi: Alan, H. (2023). Bozqirdan jannat bog‘iga. Temuriylar (1360-1506) (Z. Baynazarov va boshq., Tarj.). SamDU nashri.)

2. Bulut, S. (2017). Asya Coğrafyası'nın Büyük Edibi Ali Şîr Nevâî'nin Hayatı, Edebi Kişiliği, Eserleri ve Türk Dili'ne Katkıları. *Akademik Social Studies (Asya Studies)*, *1*(1), 23-41. https://doi.org/10.31455/asya.334014
3. Devereux, R. (Tarj.). (1966). *Judgment of two languages: Muhakamat al-Lughatain by Mir 'Ali Shir Nawā'i*. E. J. Brill.
4. Djuraeva, X., & Sulaymonov, M. (2023). *Navoi and Husayniy*. In Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies (PAMIR 2023) (pp. 265-268). SCITEPRESS. https://doi.org/10.5220/0012485200003792
5. Document of the Month 6/26: Timurid epistolary collections. (2026). *Invisible East*. University of Oxford. https://invisibleeast.site.ox.ac.uk/articles/document-month-626-timurid-epistolary-collections
6. Erkinov, A. (2025, April 21). *Navā'ī's elevation of Turkic literature in a Persianate world: An interview with Aftandil Erkinov*. JHI Blog. https://www.jhiblog.org/2025/04/21/navais-elevation-of-turkic-literature-in-a-persianate-world-an-interview-with-aftandil-erkinov/
7. Jo'rayeva, H. B. (2025). Mumtoz zamona buyuklari. *journal.namdu.uz arxivi*, (1). https://journal.namdu.uz/archive/2025-issue-1/maqola-93438-1736180982/pdf
8. Karsakpay inscription. In *Wikipedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Karsakpay_inscription
9. Kurat, A. N. (1940). *Topkapı Sarayı Müzesindeki Altınordu, Kırım ve Türkistan Hanlarına Ait Yarlık ve Bitikler*. İstanbul.
10. Kut, G. (2020). Alî Şîr Nevâyî'nin (ö. 906/1501) Türkçe Yazma Bilinci ve Kimi Dikkat Çekici Eserleri ile Kâtiplere Serzenişi. *KÜLTÜRK*, (1), 73-81.
11. Manz, B. F. (2007). *Power, politics and religion in Timurid Iran*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511497483
12. Matsui, D., Watabe, R., & Ono, H. (2015). A Turkic-Persian decree of Timurid Mīrān Šāh of 800 AH/1398 CE. *Orient*, *50*, 53-75. https://doi.org/10.5356/orient.50.53
13. Muhakamat al-Lughatayn. In *Wikipedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Muhakamat_al-Lughatayn
14. Nagamine, H. (2025). *On the Tārīkh-i Khānī, a Uyghur script source of the Timurid period* (Paper presentation). 67th PIAC, Gotemba. https://www.altaist.org/?p=15748
15. Ölmez, Z. (2007). Çağatay Edebiyatı ve Çağatay Edebiyatı Üzerine Araştırmalar. *Türkiyat Araştırmaları Literatür Dergisi*, *5*(9), 173-219. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/655228
16. Perry, J. R. (2006). *Turkic-Iranian contacts i.* Linguistic contacts. In Encyclopaedia Iranica. https://www.iranicaonline.org/articles/turkic-iranian-contacts-i-linguistic/
17. Sertkaya, O. F. (2005). *Temürbeg'in Toktamış Han üzerine 793=1391 yılında yaptığı seferin Arap ve Uygur harfli kitabesi (Karsakpay yazıtı)* (Paper presentation). Uluslararası "Emir Timur ve Mirası" Sempozyumu, İstanbul.
18. Sodiqov, Q. (2025). Alisher Navoiyning uyg'ur xatidagi ijodi. *Al-Buxoriy*, (3), 4-14.
19. Subtelny, M. E. (2007). *Timurids in transition: Turko-Persian politics and acculturation in medieval Iran*. Brill.
20. Timur. In *Wikipedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Timur
21. Tombulog'lu, T. (2023). Temuriylar davlatida ta'lim. In *Temuriylar sivilizatsiyasiga doir izlanishlar* (Z. Baynazarov va boshq., Tarj., 83-97-b.). SamDU nashri.
22. A trip to Tamerlane's Gate: Inscriptions of Ulugh Beg (1425) and Abdullah Khan (1571). *YEP.uz*. https://yep.uz/en/2025/04/tamerlane-s-gate-and-the-il-18-crash-many-old-photos-and-a-picture-travelling-in-uzbekistan/

23. Uçar, M. (2013). (Review of the book *Çağatay Türkçesi*, by M. Argunşah). *Gazi Türkiyat*, (13), 246-249. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/76841
24. Usmanova, E. R., Zhumashev, R. M., Yedgina, G. T., & Panyushkina, I. P. (2026). The Karsakpay epigraphic monument on Altynshoky Hill in the landscape of Tamerlane's 1391 military campaign. *Turkic Studies Journal*, (TSJ Special Issue 2SI), 198-228. https://doi.org/10.32523/2664-5157-2026-2SI-198-228
25. Uzunoğlu Sayın, E. (2025). Yûsuf Emîrî'nin Farsça Divanında Ekol Sahibi Bir Şehzade: Gıyâseddin Baysungur. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, *13*(44), 456-474. https://doi.org/10.33692/avrasyad.1712698
26. Yezdî, Ş. A. (1972). *Zafernâme* (A. Urunbayev, Nşr.). Taşkent.
27. Zeylâbî, N. (2020). Timurlular Döneminde Edebiyat (Ç. Kaska, Çev.). *KARE Uluslararası Karşılaştırmalı Edebiyat Dergisi*, *8*, 129-142. https://doi.org/10.38060/kare.620351 (Aslı: Dânişnâme-i Cihân-i İslâm. Cilt 8. Tahran, 2004, s. 835-840.)
28. İbn Arabşah. (2012). *Acâibü'l-Makdûr* (A. Batur, Çev.). Selenge.
29. Абдураҳмонов, Ғ., ва Шукуров, Ш. (1973). *Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси*. Ўқитувчи.
30. Благова, Г. Ф. (1986). О языковой ситуации в тимуридском Мавераннахре (рубеж XV-XVI вв.). В кн.: *Turcologica 1986: К 80-летию академика А. Н. Кононова* (с. 42-50). Наука. https://www.orientalstudies.ru/rus/images/pdf/journals/turcologica_1986_06_blagova.pdf
31. Муминов, И. М. (1968). *Роль и место Амира Тимура в истории Средней Азии*. Фан.
32. Навоий, А. (1987-2002). *Мукаммал асарлар тўплами* (20 жилдлик).
33. Пономарев, А. И. (1945). Поправки к чтению "Надписи Тимура". *Советское востоковедение*, *3*, 222-224. https://www.orientalstudies.ru/rus/images/pdf/journals/sovetskoe vostokovedenie_03_1945_12_ponomaryov.pdf
34. Рустамов, А. (1979). *Навоийнинг бадиий маҳорати*. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
35. Фазылов, Э. И. (1966-1971). *Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века* (Т. 1-2). Фан.